



Baxtiyor ZULFIQAROV,
Toshkent Axborot texnologiyalari universitetining assistenti

O‘ZBEKISTONDA QOG‘OZ ISHLAB CHIQRISH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

Sanoatlashgan va texnologiyalar rivojlangan XXI asrda axborot olishga bo‘lgan ehtiyojlarda qog‘ozga bo‘lgan talab kamayib qolmadi. Uchinchi ming yillikda jahon ishlab chiqaruvchilari tomonidan yiliga o‘rtacha 400 million tonnaga yaqin qog‘oz ishlab chiqarila boshlandi va ular tarkibiga ko‘ra 42% sellulozadan, 36% qayta ishlangan qog‘ozlardan, 11% yog‘ochdan, 8% pigment va to‘ldiruvchilardan, 3% tarkibiy kimyoviy moddalardan iborat bo‘ldi. Shuningdek, ilm-fan taraqqiyoti, zamonaviy texnologiyalar natijasida neft va neft mahsulotlari asosidagi qog‘oz sanoati ham rivojlanmoqda.

Qog‘oz sanoatida uning xilma-xil maqsadlarda foydalaniladigan 800 ga yaqin turlari mavjuddir. AQSH, Kanada, Rossiya, Finlyandiya, Xitoy qog‘oz sanoati eng rivojlangan davlatlar bo‘lib, umumiy halqaro qog‘oz iste‘molining 75 % i ushbu dalatlarga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston Respublikasida xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, paxta asosidagi sellulozadan yarim mahsulot emas, balki qog‘ozning o‘zini tayyorlab, ichki va tashqi bozorlarga olib chiqish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda.

Sir emas, O‘zbekistonda selluloza, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj nihoyatda katta. Bu ehtiyojni qondirish maqsadida qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab-chiqarish borasida innovatsion texnologiyalarni yaratish, ishlab-chiqarish tizimini avvalgidan bir necha barobar jadallashtirish zaruriyati tug‘ildi. Buning uchun esa O‘zbekiston sharoitida xomashyo mahsulotlari bazasi va imkoniyatlar yetarli darajadadir. Qog‘oz ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida samarali ishlab chiqarishni joriy etish



bo'yicha davlat dasturlari va tadbirkorlik asosidagi loyihalar amalga oshirila boshlandi. Bunda zarur imtiyozlarga ega bo'lgan maxsus industrial zonalarda va xorij kompaniyalari bilan hamkorlikda amaliy ishlar tashkil etilib, ko'pgina tajribalarga ega bo'lmoqdamiz.

O'zbekiston qog'oz sanoatida 30 ga yaqin katta-kichik korxonalar faoliyat olib borishmoqda. Ammo bu korxonalar, to'liq hajmda ishlashlariga qaramasdan mamlakatimiz ichki bozorida qog'ozga bo'lgan extiyojni o'z mahsulotlari bilan ta'minlay olishmayapti. Buning ustiga keyingi yillarda qog'oz sanoati mahsulotlari ishlatiladigan sohalar kengayib, unga talab yanada oshib bormoqda.

Misol uchun, jahonda ishlab chiqarilayotgan qog'oz mahsuloti turlari bo'yicha foizlarda taqsimlanishiga e'tibor beraylik:

- 12% – gazeta qog'ozlari;
- 31% – bosma va yozuv qog'ozlari;
- 24% – bir qavatli tekis karton va gofrirlash uchun qog'ozlar;
- 14% – kartonlar va qutilar;
- 6% – sanitariya-gigiyena qog'ozlari;
- 13% – boshqa turdagi qog'ozlar.

Rivojlangan mamlakatlarda bir yilda ishlab chiqarilgan qog'ozlar hajmi har bir odam hisobiga 200 kg ni tashkil etsa, bu raqam Rossiyada – 50 kg ga, mamlakatimizda esa 0,5 kg atrofida to'g'ri keladi. Bundan ko'rinib turibdiki, respublikamizda qog'oz sanoatini rivojlantirib, import o'rniga ichki ehtiyojni qoplaydigan mahalliy ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish uchun anchagina say-harakatlar qilish kerak.

Yuqorida aytganimizdek, rivojlangan mamlakatlarda qog'ozning 800 ga yaqin turi ishlab chiqariladi. Respublikamizda esa ayni paytda 30 turdagi qog'ozlar ishlab chiqarilmoqda. Bu ham bo'lsa, 1932 yilda ishga tushirilgan, qog'oz fabrikasi (hozirda "O'zbek qog'oz" OAJ), Angren qalin qog'oz fabrikasi (1988), Toshkent maxsus qog'oz fabrikasi (1995), Namangan qog'oz fabrikasi (1997), Yangiyo'l paxta sellulozasi ishlab chiqarish fabrikasi (2001), Farg'ona paxta selluloza ishlab chiqarish fabrikasi (2002) va boshqa bir nechta kichik fabrikalar mahsulotlaridir.

Zamonaviy hayotda axborot almashinuvi, ta'lim, nashriyot ishlari, maishiy turmush ehtiyojlari uchun import o'rnini bosadigan ichki qog'oz ishlab chiqarish ishini yanada rivojlantirib, yuqori darajadagi jahon standartlariga mos keladigan korxonalarni barpo etish davr talabiga aylandi.

Hozirgi paytda qog'oz ishlab chiqarish mashinalarining maksimal tezligi minutiga 3500–4500 metrgacha yetgan, sifat ko'rsatkichi ham ortib bormoqda. O'zbekiston sharoitida bu kabi katta sur'atlarda ishlovchi texnologiyalarni qo'llash imkoni kamroq bo'lsa-da (bu texnologiyalar asosan yog'och xom ashyosi bilan ishlashga mo'ljallangan) lekin



o'rtacha hajmdagi zavod-fabrikalar faoliyatini paxta sellulozasi xom ashyosi asosida amalga oshirish mumkin

O'zbekistonda selluloza, qog'oz va qog'oz mahsulotlarini olish uchun tolali xomashyo va kimyoviy vositalar mavjud. G'o'zapoya, sholipoya, bug'doy somoni, safflor (masxar) poya, topinambur poya kabilar mamlakatimizda minglab gektar yerga ekiladi. Ammo ushbu poyalar to'la qayta ishlanadi deb bo'lmaydi. Buning ustiga qog'oz saovatida qo'llaniladigan natriy ishqori, soda, kaolin va boshqa kimyoviy vositalar ham o'zimizda ishlab chiqariladi.

Agar selluloza va qog'oz ishlab chiqarish uchun maxsus texnologiyalar sohaga jalb qilinsa, halqaro ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlik o'rnatgan holda ichki imkoniyatlarimizni to'liq ishga solish orqali muammoni hal etsa bo'ladi.